

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH BORASIDAGI ISLOHOTLAR TAHLILI

ОБЩЕСТВЕННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН АНАЛИЗ РЕФОРМ ПОСТАВКИ

PUBLIC SAFETY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ANALYSIS OF SUPPLY REFORMS

Shukurov Abbas G'ulomovich

*Samarqand Davlat Chet tillari Institut Ingliz tilii 2 fakulteti III kurs talabasi
Jumayev Akmal G`ulom o`g`li
O`zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Maxsus Fakultet 1-bosqich talabasi.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O`zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta`minlash sohasida amalga oshirilgan islohotlar va ushbu islohatlarning tahlili, shuningdek O`zbekiston Respublikasining jamoat xavfsizligini taminlash borasida jahon arenasida tutgan o`rni va ahamiyati haqida qisqacha bayon qilingan.*

Аннотация: *В данной статье общественность Республики Узбекистан реформы, проводимые в сфере безопасности и это анализ реформ, а также общественности Республики Узбекистан о своем месте и значении на мировой арене в плане обеспечения безопасности кратко изложено.*

Abstract: *In this article, the public in the Republic of Uzbekistan reforms carried out in the field of security and this analysis of reforms, as well as the public of the Republic of Uzbekistan about its place and importance in the world arena in terms of ensuring security briefly stated.*

Kalit so`zlar: *Jamoat xavfsizligi, davlat xavfsizligi, jamoat tartibi, jamoat xavfsizligini ta`minlash, "yo'l xaritasi", "hudud metodikasi", "Jamoat xavfsizligi fidoyisi".*

Ключевые слова: *Общественная безопасность, государственная безопасность, общественный порядок, общественность. обеспечение безопасности, «дорожная карта», «территориальная методология», «Общественная безопасность». преданный».*

Key words: *Public security, state security, public order, public ensuring safety, "road map", "territory methodology", "Public safety devotee".*

ASOSIY TUSHUNCHALAR

Jamoat xavfsizligi – shaxs, jamiyat va davlatning jinoyatchilik, boshqa huquqqa xilof harakatlar, favqulodda holatlar oqibatlari, ijtimoiy nizolar, tabiiy ofatlar, epidemiyalar, yirik holatlar, avariya, shuningdek yong`inlardan himoyalanganlik holatini ifodalash maqsadida qo'llaniladigan tushuncha.[1]

Davlat xavfsizligi – O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumining, suverenitetining, hududiy yaxlitligining va boshqa davlat manfaatlarining tashqi hamda ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati bo'lib, u O'zbekiston respublikasi barqaror rivojlanishini hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklari ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi.[2]

Jamoat xavfsizligi — jamiyatning qonunga xi洛f tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo'lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi;

Jamoat xavfsizligini ta'minlash — davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim.[3]

Jamoat tartibini saqlash — fuqarolarning shaxsiy va jamoat xavfsizligi, tashkilotlarning normal faoliyat ko'rsatishi hamda fuqarolar mehnat qilishi va dam olishi uchun to'liq sharoit yaratishga, ularning sha'ni, qadr-qimmatini hamda umumaxloqiy qadriyatlarni hurmat qilishga yo'naltirilgan huquqiy va ijtimoiy normalar asosida jamoat joylarida yuzaga keladigan va rivojlanadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.[4]

Bugungi kunda xalqaro maydondagi tahlikali vaziyatda davlat xavfsizligini, shu jumladan jamoat xavfsizligini ta'minlash jahondagi barcha davlatlarning pirovard maqsadiga aylangan. Chunki hozirgi kunda dunyoning har bir burchagida davlatlar o'rtasida urush bo'layotgani hammamizga ma'lum. Albatta, o'z davlatining tinchligini, fuqarolarining xavfsizligini, hududiy yaxlitligini va eng muhimi o'z suverenitetini saqlab qolishni xohlovchi har bir davlat bunday urushlarga qarshi bo'lmog'i lozim.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik hamda jamoat xavfsizligi madaniyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, bu boradagi islohotlar orasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-sun Farmoni alohida ahamiyat kasb etadi. Ya'ni ushbu farmonda quyidagilar ko'rsatilgan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-sun Farmoniga muvofiq, shuningdek, mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada rivojlantirish hamda ushbu sohadagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash maqsadida quyidagilar belgilandi:

Jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi ilg'or xorijiy va milliy tajribalar asosida ishlab chiqilgan hamda aholini har qanday tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan:

1. O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiysi;
2. 2022 – 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi;

3. 2022 – 2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasini 2022-yida amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” ni tasdiqlash kabi vazifalar belgilangan.[5]

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi milliy xavfsizlikning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblangan jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi davlat siyosatini belgilovchi muhim hujjat hisoblanadi.

Huquq-tartibotni yanada mustahkamlash va jinoyatchilikning yangi ko‘rinishlariga qarshi kurashish zarurati mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni belgilab olishni talab etadi.

2022 — 2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasining maqsadi mamlakatda jamoat xavfsizligini ta’minlashning sifat jihatdan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha huquqiy, uslubiy, ilmiy, tashkiliy choralarни ishlab chiqish va samarali amalga oshirishdan iborat.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashning huquqiy asoslarini rivojlantirish quyidagilar aosida amalga oshiriladi:

- jamoat xavfsizligi sohasida yagona qonun hujjati loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish orqali jamoat tartibini saqlash, huquqbazarliklar profilaktikasi, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash va probatsiya sohasidagi munosabatlar va vakolatlarni tartibga soluvchi 200 dan ortiq normativ-huquqiy va idoraviy normativ hujjatlar normalari va qoidalarini birlashtirish.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashning uslubiy asoslarini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega.

- mahalla huquq-tartibot maskanining namunaviy loyihasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- respublika bo‘yicha mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatini to‘laqonli yo‘lga qo‘yish;

- jamoat xavfsizligini ta’minlash, guruhiy qonunbazarliklar va ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish bo‘yicha 14 ta (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar) “Hudud metodikasi”ni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

- har beshta mahalla uchun bitta mahalla huquq-tartibot maskanini namunaviy loyiha aosida tashkil etish.[6]

Jamoat xavfsizligini ta’minlashning ilmiy asoslarini rivojlantirish ham zarur.

- jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatining tarkibiy qismlarini ifodalovchi masalalarini chuqur ilmiy o‘rganish aosida Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya ta’lim muassasalari o‘quv jarayonida “Jamoat xavfsizligi asoslari” fanini joriy etish, shu jumladan “Jamoat xavfsizligi asoslari” darsligini tayyorlash, shuningdek respublika ta’lim muassasalarida kriminologiya fani o‘qitilishini rivojlantirish.

- jamiatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlash;

- aholining huquqiy ongi va siyosiy-huquqiy madaniyatini, siyosiy hamda ijtimoiy faolligi, fuqarolik mas’uliyatini oshirish aosida mamlakatda huquqiy jamiatni barpo etish va mustahkamlash.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

-jamoat xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shu jumladan keng qamrovli maqsadli dasturlarni qabul qilish va ularning ijrosini ta’minlash;

-jamiatning qonunga xilof tajovuzlardan himoya qilinishini ta’minlash, shu jumladan bunday tajovuzlarning o‘z vaqtida oldini olish, ularning asosiy sabablarini aniqlash va bartaraf etish;

-jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlarini keng joriy etish.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyati quyidagi asosiy prinsiplarga tayangan holda amalga oshiriladi:

- qonuniylik;
- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish hamda ularni hurmat qilish;
- ochiqlik va shaffoflik;
- jamoat xavfsizligiga tajovuz qiluvchi tahdidlarning oldini olish va bartaraf etish tadbirlarining ustuvorligi;
- jamoat xavfsizligini ta’minlashda barcha vakolatli tuzilmalarning harakatlari izchilligi va birdamligi.

Davlatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni ijrosini ta’minlash uchun, albatta jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyektlar belgilangan, ya’ni bu subyektlar quyidagilar: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan iborat. Bundan tashqari boshqa davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolar jamoat xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etuvchi subyektlarga kiradi.[7]

Mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlashga doir qonunchilik hujjatlari yanada takomillashtirish, shuningdek mavjud huquqiy bo‘shliq va ziddiyatlar bartaraf etish, milliy xususiyatlar va sharoitlar e’tiborga olingan holda xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajriba tatbiq etish hamda jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, tizimlashtirish kabi vazifalar belgilangan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jamoat xavfsizligini ta’minlash, jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlarni o‘tkazishga jalg qilinadigan vazirlik va idoralar kuch va vositalarining birgalikdagi harakatlanish strukturasini ishlab chiqish va uni doimiy takomillashtirib borishni davrning o‘zi taqozo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasining jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yuqorida keltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish jamoat tartibini saqlashga qaratilgan “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiysi”, “jamoat xavfsizligi strategiyasi” va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan tadbirlarning to‘liq amalga oshirilishini va fuqarolarning erkinliklari, jamiyat va davlat

manfaatlarining qonunga xilof tajovuzlardan himoyalanganlikni sifat jihatdan yuqori darajaga ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi.

Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas’ul davlat tuzilmalariga o‘z faoliyatini “Barcha sa’y-harakatlar inson qadri uchun” degan ustuvor g‘oya asosida yanada takomillashtirish vazifalarini ijrosini ta’minalash va jamoat xavfsizligini ta’minalash borasidagi say-harakatlar samaradorligini yanada oshirish maqsadida “Jamoat xavfsizligi fidoyisi” idoralararo ko‘krak nishonini ta’sis etilishi har bir davlat idoralarining o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni yanada yuksak darajada bajarilishiga turtki bo‘ladi deb hisoblaymiz. shu bilan birgalikda, jamoat xavfsizligini ta’minalash yo‘nalishidagi ishlarni “Xalq manfaatlariga xizmat qilish” prinsipi asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Yuridik ensiklopediya.
2. O‘zbekiston Respublikasining ``Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida``gi Qonuni. <http://lex.uz>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ``O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida``gi PF-27-sod Farmoni. <http://lex.uz>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ``O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida``gi PF-27-sod Farmoni. <http://lex.uz>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ``O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida``gi PF-27-sod Farmoni. <http://lex.uz>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ``O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida``gi PF-27-sod Farmoni. <http://lex.uz>
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ``O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida``gi PF-27-sod Farmoni. <http://lex.uz>
8. www.lex.uz.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ``O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida``gi PF-27-sod Farmoni. <http://lex.uz>.
10. ``O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi`` konsepsiysi.
11. ``2022-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimini rivojlantirish`` strategiyasi.